

O'qituvchi: B. Yuldoshev

Fan: Jahon tarixi

Sinf: 9-sinf

Mavzu: XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Eron

TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	9-sinf XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Eron
Maqsad, vazifalar	Maqsad: XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Eronning ijtimoiy-siyosiy xolati haqidagi ma'lumotlarni o'quvchilar qalbi va ongiga singdirish. Vazifalar: - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. - mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimini baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	Birinchi jahon uruslii arafasida Eronning xorijga tobeligi yanada kuchaydi. 1912-yilda Eron 1907-yilgi Rossiya-Buyuk Britaniyaning ta'sir doiralari haqidagi bitimini tan olishga majbur etildi. Rossiyadan 14 million rubl qarz olindi va Eron iqtisodiy hamda siyosiy jihatdan buyuk davlatlarga qaram bo'lib qoldi.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Og'zaki bayon qilish, “Skarabey”, “Muammo” texnologiyasi, “Tushunchalar tahlili” texnologiyasi. Shakl: suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar, matnlar. Doska, teleskop, kompyuter vositasi va boshqalar Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. Nazorat: Og'zaki nazorat, savol - javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi: matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

DARSNING BLOK CHIZMASI

No	Dars bosqichlari	Vaqli
1.	Tashkiliy qism	3 minut
2.	O'tilgan mavzuni takrorlash	7minut
3.	Yangi mavzuni guruhlar bilan ishlash	20 minut
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
5.	Baholash	3 minut
6.	Uyga vazifa	2 minut
	Jami	45 minut

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O'zbekistonda va dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o'quvchilar orqali) tanishtirish.

Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko'rish

- 1) Darslik.
- 2) Dunyo va O'zbekiston xaritasi.
- 3) Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar) (ilova qilinadi)
- 4) Sinf xonasini guruhlariga ishlashga tayyorlash (sinf o'quvchilarining soniga qarab 4, guruhga bo'lib, stollarni qo'yib chiqish).
- 5) Guruhlarni baholash uchun har bir o'quvchiga quyidagicha jadval tayyorlanadi.

	Savollar	To'g'ri va to'liq javob	Qisman to'g'ri javob	Umuman javob yo'q
	Shoh Muzaffariddin qachon vafot etdi.	1907yilda	1910 yilda	1955 yilda
	Tehronda Muhammad Alishoh qachon taxtdan tushirildi.	1909 yilda	1915 yilda	1983 yilda
.	Axmad shoh mamlakat iqtisodini o'nglash maqsadida chet eldan, chunonchi, Buyuk Britaniyadan qancha qarz oldi.	1 million 250 ming funt sterling	1 million 300 ming funt sterling	4 million ming funt sterling
.	Eron inqilobining ikkinchi davri qaysi yillarni o'z ichiga oladi.	1907-1911-yillar	1907-1916-yillar	1904-1905-yillar

Izoh: to'g'ri va noto'g'ri javoblar soni belgilanadi

Dars turi: Aralash

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: Kichik ma'ruza, guruhlarda ishlash metodlari.

Sinfni guruhlar bilan ishlashga tayyorlash

O'quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga sud tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yozilgan kartochkalar tayyorlanadi.

II. O'rganilgan mavzuni ("1906-yilda qanday omillar shohni konstitutsiya joriy etishga majbur etdi? Bu konstitutsiya shohga qanday vakolatlar berdi?") takrorlash

Guruhlarga quyidagi topshiriqlar beriladi:

- 1) O'tgan mavzu bo'yicha berilgan savollarga javobni birgalikda maslahatlashib toping
- 2) So'ng fikr almashing
- 3) Taqdimotga tayyorlaning

TOPSHIRIQLAR:

1-guruhga Birinchi jahon arafasida Eron nima sababdan Buyuk Britaniyadan qarzдор bo'lib qoldi.

2-guruhga Erondagi 1905—1911-yillar inqilobi natijasida qanday katta ijtimoiy hodisa bo'ldi?

3-guruhga Eronda 1905-yil inqilobiy harakatni boshlanishiga nima sabab bo'ldi?

4-guruhga Birinchi jahon urushi arafasida Eronning Rossiyadan qarzi nima sababdan oshib ketdi?

O'quvchilar o'zlashtirilgan ma'lumotlarni daftarlariga yozib bo'lgandan so'ng guruhlar daftarlarini almashtiradilar va o'qib berilgan javoblarning to'g'ri noto'g'riligini joyida belgilaydilar. O'qituvchi guruhlar javoblarini tinglab, umumlashtiradi va o'tilgan mavzuga yakun yasaydi.

III. Yangi dars mazmuni:

O'qituvchi yangi mavzuni slaydlar asosida qisqacha ma'ruza orqali tushuntiradi (slaydlar va ma'ruza ilova qilinadi).

Ma'ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

1 Tabrizda Eron tarixida birinchi parlament — Majlis tuzildi. Majlis nima sababdan Eron sotsial demokratlar ta'siri ostida edi?

2 saylovda nima sababdan 6 ta ijtimoiy qatlamga saylash huquqi berildi?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun

1-USUL. «SKARABEY» TEXNOLOGIYASI

«Skarabey» interfaol texnologiya bo'lib, u tinglovchi (yoki o'quvchi)larda fikriy bog'liqlik, mantiqiy fikrlash, xotiralarning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya O'quvchilarda mustaqil ravishda o'z bilimlarining sifati va saviyasini xolisona baholashga, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi. U ayni paytda turli g'oyalarni ifodalash va ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga ham xizmat qiladi.

«Skarabey» texnologiyasi universal texnologiyalardan bo'lib, undan o'quv materiallarini tinglovchi (yoki o'quvchi)lar tomonidan egallashning turli bosqichlarida, YA'ni:

- boshida-o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («Aqliy hujum») uslubi;

- mavzuni o'rganish jarayonida-uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; mavzu mazmuni ichidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash, mazmunni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatishda;

- oxirida-olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida foydalanish mumkin.

«Skarabey» texnologiyasi tinglovchi (yoki o'quvchi)lar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Texnologiya tinglovchi (yoki o'quvchi)lar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

«Skarabey» texnologiyasidan yakka holda, kichik guruhlarda va jamoa bo'lib ishlashlarida foydalanish mumkin.

Ta'limdan tashqari mazkur uslub tarbiyaviy xarakaterdagi:

- o'zgalar fikrini hurmat qilish;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalilik;
- ishga ijodiy yondashish;
- mavjud imkoniyatlarni ko'rsatish;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirish;
- «men»ni ifodalash;
- o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otish kabi qator sifatlarni shakllantirish imkoniyatini ham beradi.

«Skarabey» texnologiyasida uchraydigan asosiy tushunchalar:

Assotsiatsiya – mantiqiy bog'liqlik bo'lib, sezgi, tasavvur, idrok qilish, g'oya va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir.

Zanjirlash (muayyan tartib) – ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

O'qituvchi har bir o'quvchining ishini aylanib ko'rib chiqadi. Topshiriq bajarilgandan so'ng o'quvchilar o'zlarining javoblarini ekrandagi to'g'ri javob bilan solishtirib ko'radilar va qancha to'g'ri va noto'g'ri belgilanganligi so'raladi.

2-USUL: «MUAMMO» TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchi (yoki o'quvchi)larga o'quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi hatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

O'qituvchi tinglovchi (yoki o'quvchi)larni guruhlariga ajratib, ularni mos o'rinlarga joylashtirgandan so'ng, mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi, ya'ni u mashg'ulotni bosqichli bo'lishini va har bir bosqich tinglovchi (yoki o'quvchi)lardan maksimum diqqat - e'tibor talab qilishini, mashg'ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo'lib ishlashlarini aytadi. Bunday kayfiyat tinglovchi (yoki o'quvchi)larga berilgan topshiriqlarni bajarishga tayyor bo'lishlariga yordam beradi va bajarishga qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari va talablari tushuntirilgach, mashg'ulot boshlanadi:

- tinglovchi (yoki o'quvchi)lar tomonidan mashg'ulot uchun tayyorlangan kinolavhani diqqat bilan tomosha qilib, unda yoritilgan muammoni aniqlashga harakat qilish, xotirada saqlab qolish yoki daftarlariga belgilab qo'yish (agar kinofilm ko'rsatishning imkoniyati bo'lmasa u holda o'qituvchi o'quv predmetining mavzusi bo'yicha plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, kitobdagi o'quv materialidan foydalanishi mumkin);
- har bir guruh a'zolari tomonidan ushbu lavhadan (rasmdan, matndan, hayotiy voqeadan) birgalikda aniqlangan muammolarni vatman yoki A-3 formatdagi qog'ozga flomaster bilan yozib chiqadi;
- berilgan aniq vaqt tugagach, tayyorlangan ishni guruh vakili tomonidan o'qib eshittiriladi;
- o'qituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog'ozlarni almashtirgan holda guruhlariga tarqatiladi;
- tarqatilgan qog'ozlarda guruhlar tomonidan yozilgan muammolardan har bir guruh a'zosi o'zini qiziqtirgan muammodan birini tanlab oladi;
- o'qituvchi tomonidan tarqatilgan quyidagi chizmaga har bir guruh a'zosi tanlab olgan muammosini yozib, mustaqil ravishda tahlil etadi.

Masalan:

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va Sizning harakatlaringiz
IX sinf "O'zbekiston tarixi" darsligingizdan foydalanib, 1906 yil Eronda konstitutsiya qabul qilingan yili O'zbekiston tarixida qanday voqea yuz berganligini aniqlang.	❖ 1. ❖ 2. ❖ 3. ❖ 4. ❖ 5. ❖ 6..... ...	❖ 1. ❖ 2. ❖ 3. ❖ 4. ❖ 5. ❖ 6..... ..

- yakka tartibdagi faoliyat tugagandan so'ng har bir tinglovchi (yoki o'quvchi) bajargan tahliliy ishini barchaga o'qib eshittiradi;
- muammolar va ularning yechimi bo'yicha jamoaviy fikr almashiladi;
- himoyadan so'ng o'qituvchi mashg'ulotga yakun yasaydi. Kichik guruhlariga qiziqarli ishlari uchun minnatdorchilik bildiradi.

3-USUL: TUSHUNCHALAR TAHLILI

Uslubning mohiyati. Ushbu uslub o'tilgan o'quv predmeti yoki bo'lib barcha mavzularini o'quvchilar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'quvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga yo'naltirilgan.

Uslubning maqsadi. O'quvchilarni mashg'ulotda o'tilgan mavzuni egallanganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, sinfdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatish.

Uslubning qo'llanilishi: o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida o'tilgan mavzuni o'zlashtirganlik darajasini baholash, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin o'quvchilarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu uslubni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro'xati, qalam yoki ruchka, slayd.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'quvchilarni guruhlariga ajratiladi;
- o'quvchilar mashg'ulotni o'tkazishga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
- o'quvchilar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- o'quvchilar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan bilimlari asosida izoh yozadilar;
- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali tanishtiriladi;
- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

«Tushunchalar tahlili» uslubidan bir darsning o'zida dars boshlanishida o'tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning dastlabki bilimlari,

qanday tushunchalarni egallaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin.

Quyidagi mazkur mavzuda foydalaniladigan tarqatma materialni misol tariqasida keltiramiz.

TUSHUNCHALAR	MAZMUNI
Best	
Konsessiya	
T e h r o n	
Kojarlar	
Mustamlaka	

V. Dars yakunlanadi va baholanadi

O'quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o'qituvchi baholash uchun o'quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to'g'ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiroki va dars jarayonida jadvalning to'g'ri to'ldirilganligi va kartochkalar bilan to'g'ri ishlaganligi e'tiborga olinib baholanadi.

VI. Uyga vazifa

Yangi mavzuni darslik bo'yicha o'qib, mavzu oxiridagi savollarga javob tayyorlash, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Eron to'g'risida to'liq ma'lumotlarga ega bo'ladilar va daftarga namunalar yozib kelish.

MA'RUZA

Bu mavzu bo'yicha quyidagi ma'lumotlar asosida yo'riqlarni tavsiya etildi.. Erondagi mustabid hokimiyat yirik yer egalari, viloyat hokimlari hamda urug'larning xonlariga tayanar edi. Eronda sanoatning burjualashuvi sust kechdi. Yer dehqonlarni ekspluatatsiya qilib kelayotgan mulkdorlar qo'lida edi. Shaharlarda yashovclii hunarmandlar va mayda savdogarlar kabi dehqonlar ham sudxo'rlar tomonidan qarzga botirilgandi.

Eron yirik yer egalari, savdogarlari va sudxo'rlari shoh hokimiyatini cheklab qo'yishni, o'z mulklarining daxlsiz bo'lishini, gubernatorlar va xonlar o'zboshimchaligiga barham berishni, eronliksarmoyadorlarning huquqlarini chet ellik kapital egalari bilanteng qilib qo'yilishini talab qildilar.

Eronga kapital cliiqarish bo'yicha Buyuk Britaniya birinchi o'rinda edi. 1872-yili Eron neft konlaridan foydalanish, tosh va temiryo'l qurish konsessiyalari olindi. 1889-yili ingliz monopolisti Reyter Eronda „Shahanshohbank“ ochishga erishdi. Shartnomaga ko'ra, bank qog'oz pullar chiqarish va mamlakat yerosti boyliklaridan erkin foydalanish huquqini oldi. Birinchi jahon uruslii arafasida Eron Buyuk Britaniyadan 9,6 million funt sterling qarz bo'lib qoldi. Eronni qaram qilishda Rossiya ham ishtirok etdi. Birinchi jahon urushi arafasida Eronning Rossiyadan qarzi 164 million rublni tashkil etdi. Eronning iqtisodiy qaramligi siyosiy qaramlikni ham kuchaytirdi. Ayniqsa, Rossiyaning shoh saroyiga ta'siri kuchli edi. Inglizlar esa boshqa yo'ldan bordilar. Ular Fors viloyati, baxtiyorlar (qabilalar), Huziston xonlarini markazga, shohhukmronligiga qarслиi gijgijlab turdilar.

1907—1911-yillar Eron inqilobining ikkinchi davri deyiladi. Harakat endi asosan mustamlakacililarga qarслиi qaratildi. Shaharkambag'al qatlamlari ham o'z talablari bilan cliiqishdi. Ayniqsa, mujoliidlar tashkiloti katta ta'sirga ega bo'ldi. Ularyashirin saylov huquqi, jamiyatlar tuzish, shaxs erkinligi, shohlarini musodara qilish, ish vaqtini 8 soat qilib cheklash, bepul va majburiy ta'lim joriy qilish kabi talablar bilan cliiqdilar. Demokratik harakat ta'siri ostida shoh zamindor zodagonlarning nafaqasini qisqartirdi. Feodal zamonga xos bo'lgan unvonlarni bekor qildi. Poraxo'rlik, tamagirlikka qarслиi kurash to'g'risida qonun e'lon qildi.